

XVIII-XIX ASRLARDA XONLIK ADABIYOTI (ABULG‘OZI BAHODIRXON VA AMIRIY IJODI BO‘YICHA)

Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fakulteti 3-bosqich talabasi Kamolova Mohigul

Anotatsiya

XVIII-XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy parokandalik, lekin shu bilan birga madaniy yuksalish davri bo‘lgan. Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘z davrining siyosiy markazlari bilan bir qatorda adabiyot va san‘at markazlariga ham aylangan. Bu davrda adabiyot xonlik saroylari atrofida shakllanib, ko‘plab sarkardalar, hukmdorlar va olimlar ijod bilan shug‘ullanganlar. Ana shunday adabiyot va tarix rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan yirik siymolar orasida Abulg‘ozi Bahodirxon va Amiriy kabilar alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Abulg‘ozi Bahodirxon, Amiriy, xonlik adabiyoti, tarix, san‘at va madaniyat, shajara.

Asosiy qism

Mashhur adib, tarixchi olim va turkiy xalqlar shajarasining yaratuvchilaridan Bahodirxon Xiva xoni Arabmuhammad oilasida 1603-yilda 23-avgustda tug‘ildi. U 13 yoshidan boshlab toj-taxt uchun kurashlar davomida ko‘p sinovlarni boshdan kechirgan, ammo 1644-yilda Xiva taxtiga o‘tirgach, mamlakatni tinchlantirish, ilm va madaniyatni rivojlantirishga katta e‘tibor bergan. Uni eng mashhur asarlari "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima" kabi asarlari.

Abulg‘ozi Bahodirxon yozgan ushbu asarlari turkiy xalqlar tarixi, kelib chiqishi o‘sha davrdagi paydo bo‘lgan qabilalar, o‘sha davrda yashagan tarixiy shaxslar hayoti batafsil yoritilgan.

Asosiy tadqiqotchilar:

Bartold, V. V. – rus sharqshunosi, Abulg‘ozi asarlarini tarixiy manba sifatida tahlil qilgan.

Bregel, Y. (Yuri Bregel) – “Shajarayi turk”ning inglizcha tarjimasi va ilmiy izohlarini yaratgan.

A. Fitrat – jadid adabiyotshunosligi doirasida Abulgʻozining xalq tilida yozgan tarixiy nasr uslubini maqtov bilan tilga olgan.

P. Shamsiyev – Abulgʻozi asarlarining oʻzbek tilidagi tahririni nashrga tayyorlagan, tarixiy va tilshunoslik jihatdan izohlagan.

Umarxon, Amir Umarxon, Amiriy (1787-yil — Qoʻqon — 1822-yil) — Qoʻqon xoni (1810—1822), oʻzbeklarning Ming sulolasiga mansub, zullisonayn shoir. Norboʻtabiyning oʻgʻli. Oʻzbeklarning ming urugʻidan. Boshlangʻich savodini oilada chiqarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi — Qoʻqon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807—1808-yillarda unga Fargʻona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Umarxon vafotidan soʻng taxtga oʻgʻli Muhammad Ali-xon chiqdi.

Amiriyning asarlari

Amiriyning asarlari ichida lirika yetakchi oʻrinda turadi. Uning gʻazallari, ruboiylari va muhabbat mavzusidagi sheʼrlari oʻz davr adabiy anʼanalariga sodiq holda yaratilgan. Shoir gʻazallarida inson qalbining kechinmalari, ishq-muhabbat, vatan va tabiat goʻzalligi kuylanadi.

Shoirning mashhur gʻazallaridan ayrimlarida Navoiy, Fuzuliy va Bobur ijodining taʼsiri seziladi. U oʻz gʻazallarida maʼnaviy poklik, sabr-toqat, vafodorlik kabi fazilatlarini ulugʻlagan. Amiriyning “Devon”i mavjud boʻlib, unda yuzlab sheʼrlari jamlangan.

Amiriyning gʻazallari oʻzining nafis tili, samimiy his-tuygʻulari va falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida insoniylik, sadoqat, sabr, muhabbat kabi tuygʻular bosh mavzuga aylangan. Shoir oʻz gʻazallarida Navoiy, Fuzuliy, Bobur kabi buyuk soʻz sanʼatkorlaridan ilhom olgan boʻlsa-da, oʻzining betakror uslubini yaratgan.

Asosiy tadqiqotchilar:

Vohid Zohidov – Amiriy davri adabiy muhitini tahlil qilgan, uning Navoiy an'analariga sodiqligini ko'rsatgan.

Izzat Sulton – Amiriy ijodidagi ma'naviy g'oyalar va shoirning adabiy merosini o'zbek adabiyoti tarixida baholagan.

Hodi Zarif – Qo'qon adabiy muhiti, xon saroyi atrofidagi shoirlar faoliyati haqida ilmiy maqolalar yozgan.

M. Xo'janazarov – "Qo'qon adabiy muhiti va Amiriy ijodi" nomli tadqiqotida Amiriy asarlarining badiiy xususiyatlarini o'rganib chiqqan.

Shoirning mashhur g'azallaridan birida u shunday deydi:

"Ko'ngul, ishq yo'lida sabr qil, dard ila yashna,

G'am ko'rmayin jon topmasin, bu yo'lning boshna."

Bu baytda Amiriy ishqni insonni poklovchi, ruhni yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin qiladi. U ishq yo'lini — sabr va dard yo'li, lekin ayni paytda insonni kamolga eltuvchi yo'l deb biladi. Shoir nazarida, dardsiz, g'amsiz yashash — hayotning asl ma'nosini his qilmaslikdir. Bu g'oya Navoiy falsafasiga hamohang bo'lib, o'zbek lirikasining ruhiy teranligini ko'rsatadi.

Xulosa

Amiriy va Abulg'oz Bahodirxon — o'zbek adabiyoti va tarixining ikki yirik siymosi bo'lib, ular ijodi xalq ma'naviy hayotining turli qirralarini yoritadi.

Har ikki ijodkor o'z asarlari orqali xalqning ma'naviy qiyofasini, ruhiy dunyosini, tarixiy o'zligini aks ettirgan. Ularning merosi bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, o'zbek adabiyoti va tarixshunosligi rivojida muhim o'rin tutadi. Amiriy va Abulg'oz Bahodirxon ijodini o'rganish — bu nafaqat adabiy merosni tadqiq etish, balki xalqimizning ma'naviy ildizlarini anglash, milliy o'zlikni yanada chuqurroq his etish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.

Хо‘janazarov, M. Qo‘qon adabiy muhiti va Amiriy ijodi. — Toshkent: Yozuvchi, 1998.

Karimov, A. Amir Umarxon (Amiriy) va uning davri adabiy hayoti. — Toshkent: Ma’naviyat, 2003

Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1992.

Rajabov, A. O‘zbek tarixiy nasrining shakllanishi va rivoji. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

Qodirov, I. Abulg‘ozi Bahodirxon va uning tarixiy manbalari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

Hojimatov, B. O‘zbek adabiy merosi: shoir va tarixnavislar nigohida. — Toshkent: Universitet, 2012.